



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ANTROPONIMLAR VA ETNOTOPONIMLAR (PAXTACHI TUMANI MISOLIDA)

Ergasheva Nodira Abdurayimovna

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, katta o'qituvchi,
ergasheva.68@list.ru*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179291>

***Annotatsiya:** Toponimikada antropotoponimlar deb kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlariga aytiladi. Bunday geografik nomlar ko'proq aholi manzilgohlariga, shahar, qishloq, ko'cha, mahallalarga berilganligi uchun ularni antropooykonimlar deb atash qabul qilingan. Xullas, aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, millat, xalqqa mansubligini ifodalovchi turar joy nomlari – etnooykonimlar O'zbekiston joy nomlari tizimida alohida guruhni tashkil etadi. Bu xil oykonimlar mamlakatimiz hududida qadim zamonlardan boshlab hayot kechirgan turli qabilalar, qavmlar, xalqlarga oid yangi ma'lumotlar beradi.*

***Kalit so'zlar:** toponimika, geografik nomlar, antroponimlar, etnotoponimlar, qabila, urug', ismlar, geografik terminlar.*

Kirish. Toponimlar tilning so'z boyligi bo'lib, o'zbek tilining tarixiy leksikasi va dialektologiyasini o'rganishda, qolaversa, O'zbekiston hududida yashagan xalqlar va ularning tillari o'rtasidagi aloqalarni, munosabatlarni aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Geografik nomlarni to'plash va ularni ilmiy jihatdan o'rganish tilshunoslikning muhim masalalarndan biri hisoblanadi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgan paytdan boshlab insonlar uchun o'zlari yashaydigan joylarga nom qo'yish zarurati paydo bo'lgan. Bu zarurat dastlab geografik nuqtai nazardan yuzaga kelgan, keng hududda (makonda) mo'ljal olish yoki bir manzilni ikkinchi manzildan farqlash uchun nom zarur bo'lgan. Yer yuzasidagi millionlab geografik obyektlarning hududiy joylashgan o'rni, manzili shu nomlar orqali aniqlanadi, xaritaga tushiriladi, u yerlarda yuz bergan va berayotgan voqea, hodisalar haqida ma'lumot beriladi.

Toponimikada antropotoponimlar deb kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlariga aytiladi. Bunday geografik nomlar ko'proq aholi manzilgohlariga, shahar, qishloq, ko'cha, mahallalarga berilganligi uchun ularni antropooykonimlar deb atash qabul qilingan. Mazkur geografik nomlarni ikkita toifaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga bu joyni birinchi bo'lib ochgan, egalik qilgan, obod qilgan kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan olingan geografik nomlar kiradi, masalan, Akbarobod, Ho'jaobod, Xaydarobod, Sherobod, Chekobod, Chek Jo'rabek, Chek Sharif va boshqalar.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ikkinchi guruhga xotira maqsadida qo'yilgan nomlar kiritiladi. Inson faoliyatini turli jabhalarida katta xizmat qilgan ulug', mashhur insonlar nomlarini abadiylashtirish maqsadida ularning ismlari familiyalari joy nomlariga qo'yiladi. Birgina Aleksandr Makedonskiyning nomi Aleksandriya, Iskandariya ko'rinishida 30 dan ortiq shaharlarga qo'yilgani bizga tarixdan ma'lum.

Mamlakatimizda nom berishda kishilarning ismlarini qo'yish yoki toponimik qo'mitaga taqdim etish hollari ko'p uchrab turadi. Islom dini odatlariga ko'ra joylarga nom berishda kishilarning ismlaridan foydalanish u qadar quvvatlanmagan. Sharqda yashagan ulug' allomalarning ismlarini dunyo xaritasida uchramasligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Keyinchalik so'lim go'shalarga aziz-avliyolar, islom dini namoyandalarining ismlari qo'yila boshladi. Bunday nom bir tomondan o'sha maskanga ziyoratchilar oqimini ko'paytirib, iqtisodiy jihatdan naf ko'rilishiga sabab bo'lsa, boshqa tomondan shu maskan tabiatini ekologik jihatdan saqlashga yordam beruvchi diniy-huquqiy himoya vositasi sifatida ishlatilgan. Ikkinchidan, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" gi qonunning 4-moddasiga muvofiq mamlakatimizda viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifini berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi. Ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblari ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno. Etnotoponimlarning vujudga kelishida aholining etnik tarkibi-ma'lum hududda istiqomat qilgan turli xalq, qabila, urug', qavmlar muhim rol o'ynagan. Aholi maskanlarining ko'pchiligi kishilarning ijtimoiy guruhiga – qaysi qabila va urug', qavmga mansubligiga nisbatan nom ola boshlagan. Etnonimdan yasalgan oykonimlar-etnooykonimlar, odatda, turli qabila, urug' vakillari qo'shni, aralash yashagan hududlarda, etnonimlar farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda yuzaga kelgan. Bunday nomlar o'sha qabila, urug' vakillarining o'zlari tomonidan berilmagan, balki qo'shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan qo'yilgan. Etnooykonimlarni o'rganish orqali ayrim etnoslarning o'tmishda yashagan joylarini aniqlash mumkin.

O'zbekiston hududidagi aholi maskanlarining salmoqli qismi o'tmishdagi urug', qabila, qavm nomlari-etnonimlar bilan atalgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki boshqa turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham tarixan bir qancha urug'- qabilalardan tarkib topgan. Odatda, 92 o'zbek urug'i bo'lgan, deb hisoblaydilar. Samarqand viloyati Paxtachi tumanida ham Qipchoqlar, qo'ng'irotlar, mang'itlar, kenagaslar,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

jaloyirlar, quramalar, saroylar, naymanlar, do'rmonlar, qang'lilar, minglar, yuzlar, qotag'onlar, barloslar, qovchinlar eng yirik qabilalardan sanalganlar.

Ta'kidlash lozimki, o'tmishda kishi atoqli otlarining geografik obyektlarning nomiga aylanishi turli xil usullarda bo'lgan. N.Oxunov (1989y.) ularning eng muhim to'qqizta turini ajratadi.

1. Kishi ismining o'zi bilangina atalgan oykonimlar. Bunda shaxs ismi biron-bir qo'shimcha elementsiz to'g'ridan-to'g'ri joy nomiga ko'chgan. Masalan, Sh. Nazarov, Sh. Qahhorov, Z. Xudoyberdiyeva, Abduaziz Olloyorov, T. Kenjayev, Q. Rajabov, Oxunboboyev, R.Mahmanov, Bekmurod, Sulaymon, Eshmatboy, Niyozjobi, Hayit Elbegi, Sotiboldi, Sulton, Eshmat Jobi, Rashiddin, Ziyovuddin, Quvondiq, Buvi Ziyovuddin, Rajabali, Shoniyoz boshqalar (Paxtachi tumani).

2. Kishi ismi va unga qo'shilib qo'llangan titul nomidan iborat oykonimlar: Sanchiqul, Badalboy, Mulla Yoshiuzoq, Davronbek, Mirza Salimiy, Islom mirzo, Avazboy, Ahmadboy va shu singarilar (Paxtachi tumani).

3. Kishi ismi va laqabi asosida shakllangan oykonimlar: Zayniddin suyuq, Karimkal, Kaltepa, Murodmiltiq, Hasanqora, Usta Ermamat, Xoliqpolvon, Tojiqassob, Savurqassob, Anvarqassob, Omonoshpaz, Ravshanqora, Abdurayimsovungar, Boltaholvachi, Rohilasavdogar, Qalandarxoji, Ikromnisholdachi, kabilar, (Paxtachi tumani) .

4. Shaxs ismi va unga qo'shilib qo'llangan mansab, amal nomlari bilan ifodalangan oykonimlar: Salimiyning kashkuli, Eshmatjobi, Niyozjobi, O'rozmergan, Ashurqulmergan, Boltachi (Paxtachi tumani).

5. Shaxs ismi va etnik nom bilan ifodalangan oykonimlar: Ravshanmovri, Qosimmo'ltoni, Qurbonqul (Paxtachi tumani) kabilar.

6. Kishi ismi bilan geografik terminning birikuvi orqali yasalgan oykonimlar.

Bu guruhga mansub bo'lgan antropooykonimlar shaxs ismlariga asosan qishloq, mahalla, qo'rg'on, qo'rg'oncha, ovul, guzar, tepa, dasht, cho'l, bog' singari indikatorlarni qo'shish orqali ifoda qilingan: Eshmattepa, Niyozjobi, Eshonqishloq, Buvi Ziyovuddin tepa, Rajabali tepa, Suluvqo'rg'on tepa, Rayimqul qishlog'i, Hayit Elbegi qishlohi, Qoraxon tepa, Hayitqishloq, Sultonqishloq, G'aniqishloq, Murodtepa, Abdusoli tepa, Hakimtepa, (Paxtachi tumani) va boshqalar.

7. Kishi ismiga "obod" affiksoidini qo'shish orqali yasalgan oykonimlar: Sultonobod, Haydarobod, Yo'ldoshobod, Dehqonobod (Paxtachi tumani), Azimobod, Nishonobod kabilar.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

8. Kishi ismiga “bobo”, ota”, “pir” so‘zlaridan birining qo‘shilishi asosida vujudga kelgan oykonimlar: Salimbobo (Paxtachi tumani), Mullobobo, Xo‘ja bobo (Paxtachi tumani) kabilar.

Paxtachi tumanida Nayman, Mang‘it, Mesit, Burqut, Qirg‘iz, Qorasiyroq, Metan, Saroy, To‘g‘ali, Quvondiq, Qirg‘iz, Qozoq, Xudoyberdi, Sanichiqul, Qo‘ng‘irot, Qustang‘ali, Qatag‘on, Uchuruv, Ko‘rpa, Loqay, Mojoy, Bolg‘ali, Boltali, Urganji, Juvontayoq, Arg‘in, Eroni, Xo‘ja, Xayrobod, Qoraxitoy, Mavri, Uzun, Darg‘a, Jo‘g‘i, Mo‘ltoni, Qarnovi, Oltio‘g‘il, Qayishfurosh, Ukrach, Po‘latchi, Boyto‘p, Burunsov, Cho‘michli, Polvon, Tumor, kalmurg‘uch, rajab urug‘i, Qoranayman, Ayronchi, Sakkizurug‘, To‘rto‘g‘il, Olti ota, Kaltatoy, Biya kabi etnik birliklar nomi bilan ataluvchi aholi maskanlari yuzlab uchraydi.

Kishilarning mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan oykonimlar ko‘proq qishloq va shaharlar hamda ularning tarkibiy qismlari: mahalla, daha, ko‘chalarga qo‘yiladi. Bunday nomlar ko‘p xollarda o‘rganilayotgan hududning ishlab chiqarish kuchlarini joylashish xususiyatlarini savdo-sotiq va transport yo‘llarining xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bunday geografik nomlarning yana bir ahamiyati mahalliy aholining unitilib borayotgan kasb-kori, dehqonchilik turlari, savdo aloqalarini tiklash va uning yangi innovatsion usullar bilan boyitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Oxunov. Til va ajoy nomlari. –T. “O‘zbekiston”, 1988, 3-b.
2. Y.I. Ahmadaliyev. Toponimika va geografik terminshunoslik.-F.2018.29-34 b.
3. I. Sanayev. Bu ko‘hna dunyo. - T. “Adolat”, 1996.47-51-b.
4. Enazarov T. Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari. –T., 2001.
5. O‘zbekiston Geografiya jamiyati Axboroti, 42-jild, 2013.